

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish

TADBIRKORLIK -MUSTAQIL HAYOT SARI YO‘L

- Tadbirkorlik — o‘z hayotini o‘zgartirish, oilaviy barqarorlik va moliyaviy erkinlikka erishishning asosiy yo‘li.
- Kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun bu yangi imkoniyatlar eshigi: mehnat qilish, daromad topish va mustaqil qaror qabul qilish.
- Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilgan.

TADBIRKORLIKNI BOSHLASH UCHUN QADAMLAR



Maqsadingizni to'g'ri qo'ying Bozorni baholang



Biznes-reja tuzing



Pul yig'ing



Tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazing



BIZNESNI NOLDAN BOSHLASH-SODDA VA REAL IMKONIYATLAR

Har bir fuqaro biznesni noldan boshlashi mumkin. Bunga ko'p mablag' shart emas.

- ▶ **Uy sharoitida amalga oshiriladigan faoliyatlar:** *tikuvchilik, taom tayyorlash, repetitorlik, bog'cha tashkil qilish*
- ▶ **Qo'shimcha daromad uchun:** *parikmaxerlik, tozalash xizmati, to'quvchilik, tamorqa xo'jaligi*

Umumiy qoida: *kichikdan boshlang, bir xil faoliyatni barqaror qiling, rivojlanish va kengayish uchun rejangiz bo'lsin.*

QAYERDA KASB O'RGANISH MUMKIN?

Ustoz-shogird tizimi

- ▶ - Aniq kasbni ustadan amaliy o'rganish
- O'rganish paytida daromad topish

“Ishga marhamat” monotsentrlari

- ▶ - 3-6 oylik bepul kasb-hunar kurslari
- Diplom olish va ishga yo'naltirish

Bandlik markazlari

- ▶ - Qisqa muddatli o'quv kurslari
- Kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish

Onlayn platformalar

- ▶ - Coursera, Hunarmand.uz va boshqalar
- Zamonaviy kasblar: IT, dizayn, marketing
- Sertifikat va masofadan o'qish imkoni

BIZNES OCHISH UCHUN NIMA KERAK?

Biznes reja — bu shunchaki qog‘oz emas!

Bu — tadbirkorning qo‘lidagi **asosiy yo‘l xaritasi**

- ▶ Biznes g‘oyani aniqlash, maqsadni belgilash va uni amalga oshirish yo‘lini ko‘rsatadi
- ▶ Qanday mahsulot/xizmat taklif etiladi, kimga va qayerda sotiladi — barchasi biznes rejada yoziladi
- ▶ Asosiy xarajatlar, daromad manbalari va moliyaviy prognozlar ko‘rsatiladi
- ▶ Bankdan kredit olish yoki investor jalb etish uchun **rasmiy va ishonchli hujjat** sifatida xizmat qiladi

BIZNESNI BOSHLAYOTGAN INSON BILISHI KERAK BO'LGAN TUSHUNCHALAR

1. Tannarx

- ▶ Mahsulot yoki xizmatni tayyorlash uchun ketgan umumiy xarajatlar.

2. Narx

- ▶ Mahsulot yoki xizmatni mijozga taklif qilish uchun belgilangan sotish qiymati.

3. Marja

- ▶ Sotish narxi va tannarx orasidagi farq — tadbirkorning foyda qismi.

4. Foyda

- ▶ Daromaddan barcha xarajatlar chiqarilgandan so'ng qoladigan sof daromad.


5. Aylanma mablag'lar

- ▶ Biznesni kunlik yoki oylik ravishda yuritish uchun doimiy harakatda bo'ladigan mablag'lar.

6. Sotuv hajmi

- ▶ Ma'lum vaqtda qancha mahsulot yoki xizmat sotilgani.

AHOLINI KICHIK VA O'RTA BIZNESGA KENG JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



YATT VA O'ZINI O'ZI BAND QILISH- QADAMMA QADAM

YATT (Yakka tartibdagi tadbirkor):

- my.soliq.uz sayti orqali ariza berish
- Faoliyat turini tanlash (tikuvchilik, savdo va h.k.)
- Elektron patent olish

O'zini o'zi band qilish:

- YAIDXP orqali (my.gov.uz) faoliyat ro'yxatidan tanlanash
- Ro'yxatdan o'tish (bepul, soliq to'lovi - 1 BRV)
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda faoliyat yuritishni boshlash

O'ZINI O'ZI BAND QILGAN AHOLIGA TAKLIF ETILAYOTGAN BIZNESGA BIRINCHI MIKROQARZNI AJRATISH KETMA-KETLIGI



KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI DASTURI BO'YICHA



MIKROMOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI

Mikroqarz miqdori	Mikrokredit miqdori
Jismoniy shaxslar uchun	Tadbirkorlik subyekti yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun
100 mln so'mgacha	300 mln so'mgacha

